

## BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA NUTQ O'STIRISH VA NUTQ MADANIYATI.

**Saxadinova Sevinch**

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi

**F.U.Olloqulova**

Ilmiy rahbar:

Termiz davlat pedagogika instituti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7768924>

### ANNOTATSIYA

Maqolaning asosiy maqsadi boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini o'stirish va nutq madaniyatini rivojlantirish. Nutq o'tirish haqida allomalar fikri va nutqirivojlantirish haqida metodlar

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf o'quvchilari, nutq o'stirish, nutq madaniyati, inavatsiyalar, intellektual yoshlar, ta'lim sifati.

Bilamizki bilimli, intellektual, salohiyatli yoshlarni tarbiyalash davlatimiz, jamiyatimiz oldida turgan asosiy masala bo'lishi lozim. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq madaniyatini shakllantirishda ta'lim mazmuni unga qo'yilgan talablarga alohida ahamiyat berilishi kerakligini ko'rsatmoqda. Zamon rivojlangani sari yangi innovatsiya va texnologiyalarning yangi avlodi ta'lim tizimi va mazmunini qayta ko'rib chiqish yanada boyitish, pedagog kadrlarning malakasini oshirish lozimligini taqazo etadi. Har bir shaxs o'z o'rniga ega bo'lishi uchun albatta kuchli va sifatli bilim olishi zarur.

Mamlakatimizdagi intellektual yoshlar butun jahonga o'z bilimlarini ko'rsatish uchun ko'p harakat qilishmoqda. Bu ilmni jahonga yoymoq uchun avvalo nutqga va nutq madaniyatiga e'tibor berishimiz zarur. Har bir inson o'z nutqi bilan bilimni yetqiza oladi. Nutqni o'z maromiga qo'yib so'zlash va ta'sirli so'zlash butun auditoriyani diqqatini jamlaydi. Shu sababli prezedintimiz tomonidan ta'lim sifatini yaxshilash bo'yicha yangidan yangi qonun va farmoyishlar chiqmoqda. Nutq madaniyatini yaxshilash uchun, unib o'sib kelayotgan boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqiga e'tibor berish zarur va shartdir.

Shu asnoda O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentabrdagi "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi «Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida»gi 187-sonli qarori, 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi

tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-sonli Farmonlarida belgilangan qator vazifalar o‘quvchilarning lingvistik va nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishga katta sharoitlar yaratdi. Bu qonunlar albatta yosh, boshlang‘ich sinf o‘quchilarini yoshligidan tafakkuri keng va salohiyatli, bilimli yoshlar yetishib chiqishiga katta zamin yaratadi. Boshlang‘ich sinflarda nutqni rivojlantirish va nutq madaniyatini yaxshilash “Ona tili va o‘qish savodxonligi” fanining asosiy vazifasi hisoblanadi. Lekin nutqni yaxshilash faqat bitta fan bilan chegaralanib qolmasligi kerak.

Bizning buyuk allomalarimiz nutq haqida yani uning asosi bo‘lgan til haqida ko‘plab ma‘lumotlar aytishgan. M.Koshg‘ariyning “Devon-u lug‘otit turk” asarida “Adab boshi – til” deyilgan. Bu gaplari orqali biz buyuk bobomizning tilga qanchalik e‘tibor berilishi u orqali odob yuzaga kelishini ko‘rishimiz mumkindir. Yusuf Xos Hojib insonda uquv-idrok va bilim til, so‘z orqali a‘yon bo‘lishi haqida aytgan va nutqning ravon go‘zal va ta‘sirli bo‘lishi –o‘quv va bilimning tilmochi, tarjimoni tildir. Kishiga ro‘shnolik, yaxshilik va ezguliklar til tufayli keladi, bunga yaxshilab e‘tibor berish va ko‘zdan qochirmaslik kerakdir. Qut-izzatni ham, obro‘-e‘tiborni ham kishi til orqali topadi. Hech qachon ko‘p gapirma. Juda oz so‘zla. Tuman so‘z tugunini bitta so‘z bilan yozib yubor, ya‘ni oz so‘zlarga ko‘proq ma‘no singdirish payidan bo‘lgin. Kaykovus o‘zining –Qobusnoma asarida so‘zlash madaniyati quyidagicha tariflaydi: “... xalq oldida gapirganda so‘zing go‘zal bo‘lsin, bu so‘zni xalq qabul qilsin. Xaloyiq sening so‘zing bilan baland darajaga erishganingni bilsin, chunki kishining martabasini so‘z orqali biladilar, har kishining ahvoli o‘z so‘zi ostida yashiringandir deb takidlagan.

Bu kabi ma‘lumotlar albatta nutq uchundir. Boshlang‘ich sinflarga berilayotgan bilimlar, ularning boshqalar oldida ma‘noli qilib gapirishlariga katta yordam beradi. Nutqning ikki turi bor bo‘lib, bular og‘zaki va yozma nutqlardir. Og‘zaki nutqda so‘zlarni o‘z o‘rniga qo‘yib so‘zlay olish bo‘lsa, yozma nutqda chiroyli va bexato yozmoqdir.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini rivojlantirish uchun har xil metodlardan foydalanish mumkin. Og‘zaki nutqni rivojlantirish uchun “Aqliy hujum” metodidan foydalanish mumkin. Bu metod orqali o‘quvchilarni fikrlash doirasini ham kengaytirish mumkin. Bu metodda o‘quvchilarga berilgan vazifalarni so‘raydi. “Aqliy hujum” metodi o‘quvchilarni keng va ma‘noli fikirlashiga olib keladi. Bunda nuqning mantiqiyiligiga e‘tibor beriladi. O‘quvchilar tomonidan yangidan yangi fikrlar topiladi. O‘quvchilar bildirgan fikrlari bo‘yicha raqobatlashishadi. Shunday ekan har bir bolaning nutqini yaxshilash albatta

boshlang'ich sinf o'qituvchilariga bog'liq. Dars davomida kerakli va foydali materiallardan foydalanilsa bu o'quvchilar uchun judayam foydali bo'ladi. Albatta bu olingan bilimlar yani nutq madaniyat o'z natijalarini ko'rsatadi va hayotda muvofaqiyatga erishishda ko'maklashadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Muhiddinov A.G. O'quv jarayonida nutq faoliyati. –T.: O'qituvchi. 1995. 80-b
2. Dilovna.N. G'. (2018). Buyuk ajdodlarimizning ta'limotlarida mujassamlashgan o'qituvchi bilan o'quvchilar hamkorligining pedagogik xususiyatlari. Zamonaviy ta'lim. №3, 63-68 b
3. Dilova N.G. (2021). Sharq allomalarining ilmiy merosi – uchinchi renesansuchun katta imkoniyat. Science and Education. Vol. 2, Issue 10, 506-514 betlar.
4. Оллокулова, Ф. (2022). Социально-педагогическое значение формирования научно-исследовательской деятельности учеников начальных классов на основе концентризма. Общество и инновации, 3(10/S), 128–134. <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol3-iss10/S-pp128-134>
5. Ollokulova F.U. VALUE RELATIONSHIPS IN YOUNG PEOPLE AND THE UNIQUENESS OF THEIR DECISION MAKING Teacher of the Department of Theory and Practical of Primary Education. ISSN: 2776-0979, Volume 3, Issue 9, Sep., 2022
6. Bosimova, M. D. qizi, & Olloqulova, F. U. (2023). TA'LIM VA TARBIYA JARAYONIDA UMUMMADANIY DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISH. INTERNATIONAL CONFERENCES, 1(1), 692–695. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/cf/article/view/1275>
7. F.U.Olloqulova. (2023). TADQIQOTCHILIK FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK TAVSIFI. Tadqiqotlar, 6(2), 336–339. Retrieved from <http://tadqiqotlar.uz/index.php/01/article/view/218>
8. Ziyaqulova Maftuna Shuhrat qizi and Feruza Hayitova Abdullayevna, "THE ROLE OF PICTURES IN THE FORMATION OF STUDENTS 'CREATIVE ABILITY IN LITERACY LESSONS", IEJRD - International Multidisciplinary Journal, vol. 6, no. 4, p. 3, Jul. 2021.

